



BOLALAR NUTQINI RIVOJLATIRISHNING TASHKILIY PEDAGOGIK VA METODIK ISHLARI.

Achilova Soxiba Xamidovna

Qo‘qon Davlat universiteti, Maktabgacha ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Ibrohimova Zahroxon Adhambek qizi

Qo‘qon Davlat universiteti talaba.

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalar nutqini shakllantirish, xususan, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish metodikasi va amaliyotida o‘zgarishlar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishga oid vazifalarni hal etish, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy aloqani tarbiyalashda tarbiyachi va ota-onalarning roli yoritilgan

Kalit so‘zlar: Maktabgacha yosh, nutqini shakllantirish, nutq o‘stirish metodikasi va amaliyot, yondashuv, metodik ishlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы формирования речи у детей, в частности изменения в методике и практике развития речи у детей старшего дошкольного возраста. Освещаются задачи формирования культуры речи у детей дошкольного возраста, а также роль воспитателя и родителей в воспитании речевого общения у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: дошкольный возраст, формирование речи, методика и практика развития речи, подход, методическая работа.

Annotation: This article examines the issues of speech development in children, in particular the changes in the methodology and practice of speech development in older preschool children. It highlights the tasks of forming speech culture in preschool children, as well as the role of educators and parents in developing communicative speech in preschool-aged children.

Keywords: preschool age, speech development, methodology and practice of speech development, approach, methodological work.

Ta‘lim tizimidagi islohotlar va davlat tili to‘g‘risidagi qonun bolalar nutqini shakllantirish, xususan, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish metodikasi va amaliyotida o‘zgarishlar bo‘lishini taqozo etadi. Bu o‘zgarishlar me‘yoriy o‘quv-metodik adabiyotlarda muayyan darajada o‘z aksini topgan. Lekin, ularga hozirgi talablar nuqtayi nazaridan tanqidiy yondoshmoq talab etiladi.

Bola rivojlanishida nutq madaniyatining kamchiliklari bola shaxsiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Xususan, bola tengdoshlari bilan muloqotda qo‘rs, odamovi, quntsiz bo‘lib qoladi. Bundan tashqari, bunday bolada tevarak-atrofni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish pasayadi, keyinchalik esa maktabda darslarni o‘zlashtira olmaslikka sabab bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishga oid vazifalarni hal etishga nisbatan quyidagicha yagona yondashuv zaruriyatini aniqlangan:

- tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni shakllantirish (bolada avvalo nutq eshitish shakllanadi, talaffuzni u keyinroq egallaydi);
- aniq talaffuz hosil qilish (so‘z va so‘z birikmalarini dona-dona hamda aniq talaffuz qilish);
- so‘zni talaffuz qilganda urg‘uni to‘g‘ri qo‘yish ustida ishlash;
- nutqning orfoepik jihatdan to‘g‘riligi ustida ishlash (bu namunaviy adabiy talaffuz qoidalarining jami);
- nutq sur‘atini rivojlantirish;
- nutqning ifodaliligini shakllantirish (nutqning tabiiy, erkin, ya’ni nutqning ongli ifodalanishi);
- nutqiy aloqa ko‘nikmalarini tarbiyalash;
- nutqiy eshitish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- nutq‘iy nafas olishni shakllantirish;
- o‘z fikrini erkin va izchil bayon etish malakasini shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy aloqani tarbiyalashda tarbiyachi va otionalarning roli benihoyat kattadir.

Bolalar nutqi ustida ishlash jarayonida:

- a) tengdoshlari bilan suhbatda xushmuomala bo‘lishlariga;
- b) tabiiy ohangda gapirishlariga;
- d) so‘zlashganda suhbatdoshining yuziga qarab turishlariga;
- e) qo‘llarini bamaylixotir holatda tutib turishiga e’tibor bermoq zarur.

Manbalar tahlili shuni tasdiqlaydiki, maktabgacha katta yoshdagi bolalarning so‘z boyligini rejali, tarzda izchil kengaytirib borish zarur.

Bolalar nutqini to‘g‘ri rivojlantirish uchun:

- a) nutq o‘stirishga doir tevarak-atrof obyektlarini oldindan ajratish va ular bilan tanishtirish;
- b) bolalarning eslab qolishi va to‘g‘ri talaffuz etishi, so‘zlashganda tez-tez foydalanishi, ahamiyatini tushunishi, zarur bo‘lgan so‘zlarning taxminiy ro‘yxatini tuzish lozim. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning faol lug‘atini boyitishda ularni tevarak-atrof bilan tanishtirish muhim vosita sanaladi, tadqiqotchi A.M.Borodich shunday deb yozadi: «Bolalarni borliq bilan tanishtirishning ikkita yo‘li bor»:

1) hissiy organlar bilan tashqi olamni bevosita idrok etish – bolalar predmetlarni kuzatadilar, ushlab ko‘radilar, eshitadilar, tatib ko‘radilar, u bilan harakat qiladilar;

2) bolalar tevarak-atrofdagilar haqida bevosita ma’lumot oladilar; tarbiyachi mehnat kishilari to‘g‘risida, tabiat bilan bog‘liq hayot haqida gapirib beradi, bolalar kuzatgan hodisalarni tushuntiradi, kitob o‘qib beradi, rasmlar, diafilmlar, kinofilmlar namoyish etadi.

Xuddi mana shu tavsiyalar maktabgacha yoshdagi bolalar bilib oladigan tevarak-atrof obyektlarini tasniflash uchun asos sifatida qabul qilinishi mumkin. Shu bilan birga, bolalarda faol va passiv lug‘at boyligi asta-sekin ortib boradi, nutq rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bola eshitadigan, ma’nosini tushunadigan, eslab qoladigan hamda qo‘llaydigan so‘zlarni asta-sekin tevarak-atrof bilan tanishish jarayonida ota-

onalari, tengdoshlari axborotlari orqali, shuningdek, o‘zining uncha ko‘p bo‘lmagan so‘z zaxirasiga tayanib bilib oladi. Bola o‘zining boradi, uning ehtiyojlari ko‘payadi, yangi istaklari, qiziqishlari paydo bo‘ladi.

Biroq tarbiyaning aqliy, axloqiy, mehnat va boshqa turlari bir maromda (bolaning yoshiga muvofiq) amalga oshishi uchun maktabgacha yoshdagi bolalar lug‘atidagi so‘zlar miqdori ustida yetarlicha o‘ylab ko‘rilmaydi. Afsuski, bu masalaga tadqiqotchilar tomonidan ham tegishli darajada e‘tibor berilmaydi. Ta’limiy-tarbiyaviy jihatdan nihoyatda dolzarb bo‘lgan bu muammo nazariy-metodologik va metodik jihatdan tadqiq etilmagan va ishlanmagan.

Hozirgi davr tadqiqotchilari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun (shu jumladan, nutqni rivojlantirish bo‘yicha ham) namunaviy faol va passiv so‘zlar lug‘atini (hech bo‘lmaganda taxminiy) tuzishlari ham kun tartibidagi dolzarb masaladir. Ayniqsa, 5, 6 va 7 yoshdagi bolalar uchun lug‘atlar tuzish nihoyatda muhimdir. Shu bilan birga, nafaqat so‘zlarning miqdoriy tarkibini aniqlash (1500, 2000 yoki 3000 – 4000 so‘z), balki ularni mavzular va hayotiy ahamiyati bo‘yicha ham hisobga olish muhimdir.

Shunday qilib, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rejali tarzda rivojlantirish uchun nafaqat tevarak-atrofnı o‘rganish, obyektlarnı asosli ravishda tanlash, balki aynı paytda eng ahamiyatli so‘zlarnı ularning mavzu jihatdan xilma-xilligi (ya’ni sifat tarkibi, ma’nosi) bo‘yicha o‘rganishni ta’minlash ham dolzarb masaladir.

ADABIYOTLAR.

1. F.R.Qodirova Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va va metodikasi. T.: “ISTIQLOL, 2006 y. O‘quv qo‘llanma
2. GM Nazirova, G Xilola TA’LIM METODLARI VA VOSITALARI Science and innovation (Special Issue 31), 111-117b
3. D.R.Babayeva “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” T.: “Barkamol avlod fayz” 2018 y. Darslik